

KREATIVLIK VA TASHABBUSKORLIK

Asadova Farzona Fozil qizi
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pdagogika universiteti
Pedagogika va psixalogiya fakulteti
Maktab menejmenti yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolaning asosiy mazmuni kreativlik va tashabbuskorlikning mohiyati, uning qanday bosqichlarda namoyon bo‘lishi , qanday ususllarda rivojlanishi va har bir shaxsda kreativlik va tashabbuskorlikni yuzaga chiqarishda yuzaga keladigan muammolar haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, signifikatsion ko‘nikmalar, psixologiya, pedagogika, verballi belgilar sistemasi, semiotic tizm, intelekt, leksik boylik, ijodkorlik, tashabbus,tashabbuskorlik,oila,pedagog, texnalogiya.

XXI asr axborotlar oqimi davrida ijtimoiy hayotimizning barcha jahbalariga, shu jumladan ta’lim-tarbiya sohasiga ham ko‘plab yangiliklar kirib kelmoqda. Ushbu yangiliklar bilan bir qatorda ularni yorituvchi yangi tushunchalar ham bizning ilmiy tilimizda qo‘llanilishi kuzatilmoqda. Jumladan pedagogika, ya’ni ta’lim-tarbiya sohasida keyingi 20-yil ichida qo‘yidagi tushunchalar keng qo‘llanilmoqda va bizning ilmiy tilimiz iste’molida keng ishlatiomoqda: pedagogik texnologiya, ilg‘or texnologiya, ilg‘or tajribalar, innovatsiya va innovatika, pedagogik neologiya, praksiologiya, aksiologiya, innovatsiya va innovator, interaktivlik, strategiyalar, gumanistik pedagogika, liberalizatsiya, ta’limda axborot kommunikatsion texnologiyalar, tarbiya jarayonida texnologiyalar,. Biz shular orasida «kreativlik» tushunchasiga alohida to‘xtab o‘tmoxchimiz. Bu tushuncha so‘nggi yillarda ta’lim-tarbiya jarayonlarida ma’lum darajada qo‘llanilmoqda. Lekin bu tushunchaning mazmun va ma’nosini tahlil etishga hamda insonlarda kreativlikning hakllanganlik darajasini aniqlashga doir qator tatqiqotlar olib borilgan. Kreativlik – bu madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanish jarayonida namoyon bo‘ladigan shaxsnинг shaxsiy sifati (fazilati)dir. Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo‘lib, uning o‘z-o‘zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog‘liq.Ijodkorlik psixologiyasining asosiy maqsadi psixologik qonuniyatlar, ijod jarayoni mexanizmi va kreativ (creativity – inglizcha ijodiy)likni o‘rganishdan iborat. Bugungi kunga kelib kreativlik nafaqat psixologlarning, balki pedagoglarning diqqat e’tiborini tortmoqda. Bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llailmayotgan bo‘lsa ham bu tushunchani ma’lum darajada pedagogik iste’molga kiritishga doir harakatlar ko‘zga tashlanmoqda. Pedagogika oid manbalarda kreativlik ijod bilan bog‘liq holda o‘rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikrlar bildirilib, bilim asosan fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog‘liq holda tahlil etiladi. Pedagogika fanida kreativlik masalasiga bevosita murojaat etgan pedagog

olim pedagogika fanlari doktori, professor R.A.Mavlonova o‘zining ilmiy ishlarida kreativlik haqida baholi qudrat fikrlar bildirgan. Uning «Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya», «Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, integratsiyasi, innovatsiyasi» nomli o‘quv qo‘llanma va darsliklarida kreativlikka alohida to‘xtab o‘tgan."Ijodkorlik - bu ko‘pchilikka noma'lum va murakkab xususiyatlarni o'rganishga imkon beruvchi tafakkuri va ruhiyatining har xil sharoitlarda jamol ko'rsatishi bilan bog'liq o'ziga xos fikrlash faoliyati modeli", "Ijodkorlik - bu aql gimnastikasi, u nafaqat donishmandlargagina kerak va hatto oddiy ijodkor odamga ham zarur", "Ijodkorlik - bu avvalo mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishni tarbiyalash, yangi bilimlarni o'zagartirishni uddalay olish, maqsad sari intiluvchanlik, g'alaba uchun kurash, o'z-o'zini takomillashtirish va o'zlikni anglashdir" kabi ta'riflar ijodkorlikning o'ziga xos mohiyati haqida ochib berilgan. O'qituvchi kreativligi (ijodkorlik) - pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, Tolipov.U,Q, Sharipov S.S “O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish pedagogik asoslar” shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati. “Pedagogik ijodkorlik” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

- 1) o‘qituvchilar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularini o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan o‘quvchilar e'tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga jalg etish;
- 2) o‘qituvchilarga o‘quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsija etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish. Xo‘s, o‘quvchini qanday ijodiy fikrlashga o‘rgatish mumkin? O‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatish, darslarni yangi texnologiya va metodlar orqali o‘tish o‘quvchida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish bilan birga ulardagи ijodiylik, yaratuvchanlik qobiliyatini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Ijodkorlik faoliyatini alloma Forobiy "bu jarayonda inson barcha aqliy va ruhiy fazilatlarini ishga soladi. Ijodiy faoliyatining hal qiluvchi onlari, odatda, alohida diqqat bilan, kishining kuch va qobiliyatlarini mavj urgan holatlar bilan bog'liq bo'ladi", - deb izohlaydi.2 Atrofga nazar solsangiz inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual olam, internet va shu kabilar. Bularning barchasi inson tafakkuri mahsulidir. Mana shunday ijodiy tafakkurni shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonidan boshlanadi. Pedagoglarda kreativ faoliyatni bilishga oid (gnostik), loyihalash, ijodiy-amaliy (konstruktiv), tadqiqotchilik, muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ), tashkilotchilik, texnik-texnologik tashkil etishga imkon beradigan malakalardir. O‘quvchilar o‘zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to‘la namoyon qilishlari mumkin. Agar o‘quvchilarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo‘rquv hissi mavjud bo‘lsa, fikrni noto‘g‘ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrasalar bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo‘lmaydi. o‘quvchilarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko‘nikmasini muvaffaqiyatl shakllantirish mumkin.Bu jarayonda ular

tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholashda qo‘llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zini tavakkaldan olib qochish, fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish, shaxs fantaziysi va tasavvurining yuqori baholanmasligi,boshqalarga tobe bo‘lish, har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash.Ushbu omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sinqilik qiladi. O‘quvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi kreativ shaxs bo‘lishi zarur. Bordi-yu, uning o‘zi kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasa, u holda qanday qilib, o‘quvchilarni kreativ fikrlashini rag‘batlantira oladi.

Tashabbus – biror ishni boshlash, da’vat etish bilan bog‘liq xatti-harakat, g‘ayratni anglatuvchi tushuncha. Inson ma’lum bir maqsadlarga intilish bilan hayot kechirar ekan, turli sharoitlarda ish olib boradi. Ana shunday sharoitlarda ko‘zlangan maqsadni anglab yetish va unga erishishning ilg‘or yo‘llarini topishga intilish tashabbusni keltirib chiqaradi. Ma’naviy nuqtai nazardan tashabbus inson dunyoqarashining tetikligi, sog‘lomligini, qiyinchiliklarni yengib o‘tishga qodirligini ifodalab, hayotga ko‘tarinki ruh va ijobjiy kayfiyatda munosabatda bo‘lishni anglatadi. Tashabbus har bir insonga, guruhga, millat va xalqqa tegishli bo‘lishi, rasmiy, norasmiy, obyektiv va subyektiv, yashirin va ochiq, funksional va nofunktional, nazariy va amaliy, ijobjiy yoki salbiy kabi ko‘rinishlarda ro‘y berishi mumkin. Tashabbusning inson ma’naviyatiga ta’siri odamlarni xayrli va ezgu ishlarga safarbar qilish, uyushtirish xususiyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi.**Tashabbuskorlik** – faoliyat jarayonida biror ishni boshlash, da’vat etish, ijodiy yondashishda namoyon bo‘ladigan shaxs xususiyatini anglatuvchi tushuncha. Tashabbuskorlik belgilangan maqsad yoki ish, harakatni amalga oshirishda o‘ziga xos uslubdan foydalanish va uni shu maqsad yoki ishga aloqador barcha kishilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga erishishni ham ifodelaydi. Tashabbuskorlik kasbga, sohaga, individual yoki ijtimoiy masala kabilarga qaratilgan bo‘lishi, moddiy, ma’naviy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va hokazo maqsadlarni ifodalashi mumkin. Yoshlar ma’naviyatida tashabbuskorlikni shakllantirish zamon talabidir. Bu sohadagi adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, masalan, bola shaxsining tashabbuskorligi, ijodiy imkoniyatlari yuqori bo‘lishi bir-biri bilan uzviy aloqador bo‘lgan bir qator omillarga bog‘liq. Bola irsiyati, asab tizimi, temperamenti va bilish jarayonlari xususiyatlari bilan birga, uning shaxsi shakllanayotgan ijtimoiy psixologik muhit xususiyatlari, atrofdagi kishilarning (oila, sinfdoshlar, pedagoglar va boshqa) intellektual darajasi, ta’lim-tarbiya jarayoni ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishiga qay darajada muvofiqligini alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Mutaxassislar fikricha, oilada bolaga mehrli munosabat, ularda ijodiy iqtidor va tafakkurni rivojlantirish ijodiy, mustaqil fikrlash qobiliyati va tashabbuskorlikning shakllanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.Ta’lim-tarbiya jarayonining yoshlarda tashabbuskorlikni rivojlantirishga mos bo‘lishi barcha ta’lim muassasalarida (bog‘cha, maktab, litsey, kollej, universitet) ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar munosabatlarini demokratlashtirish, o‘qituvchining mavqeiga nisbatan qarashni, ta’lim shakli, mazmuni va texnologiyalariga yangicha, ya’ni

innovatsion yondashuvni joriy qilishni taqozo etadi. Bunday yangicha yondashuv, eng avvalo, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ma’naviy munosabatni tubdan o‘zgartirishni talab etadi. Ko‘p hollarda, maktablardagi jarayonlarda o‘qituvchi hukmron bo‘lib, ular o‘zlarini asosan bilim, ma’lumot uzatuvchi va yoshlarning xulq-atvori bo‘yicha o‘z fikrlari, maslahatlari, ko‘rsatmalarini bildiruvchi sifatida tutadilar. Bunday holat ta’lim oluvchilarda ijodiy, erkin fikrlash qobiliyatini, tashabbuskorlikni rivojlantirishga emas, balki tayyor bilimlar zaxirasini passiv o‘zlashtirish, majburiy itoatkorlikni shakllantirishga mosdir. Ta’lim shakllari va an’anaviy ta’lim texnologiyalari asosan o‘qituvchi faolligiga tayanadi. Bugungi kunda joriy qilinayotgan ta’limga yangicha yondashuv, innovatsion ta’lim texnologiyalari ko‘proq ta’lim oluvchilar faolligiga asoslanadi, ularda mustaqil o‘rganish ehtiyoji va ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shaxsnинг ijodiy motivatsiyani qo‘llaganligi - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o‘z kamolotiga intilishdir. Kreativlik bu - xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyatidir. Demak bu tushunchani biz bemalol pedagogning individual qobiliyatiga kirta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur chashmalari” T.: 2013 y.
2. Kayumova N. M. “Maktabgacha pedagogika”. “TDPU” nashriyoti T.: 2013 y.
3. Tolipov.U,Q, Sharipov SH.S “O’quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish pedagogik asoslari”
4. “Fan” nashri 2012-yil 18,19-bet.
5. O’,J.Yo’ldoshev tahriri ostida. “Umumiyy pedagogika”. –T.:«Fan va texnologiya», 2017.
6. Nodira Egamberdiya “Ijtimoiypedagogika” Toshkent 2019.

Axborot manbaalari:

1. www. tdpuz. uz
2. www. pedagog. Uz
3. www. Ziyonet. Uz
4. www. edu. Uz
5. tdpuz-intranet. ped